

ONA TILI VA ADABIYOT FANINI OQITISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MASALASI

Raximjonova Xusnira Xusanovna

Bo'stonlik tumani 2-sonli kasb-hunar maktabi

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada muallif tomonidan ona tili va adabiyot fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish masalasi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Tayanch so'zlar: ona tili va adabiyot fani, innovatsion texnologiya, , o'qitish, o'qituvchi, o'quvchi, faoliyat, yangilik, metod.

KIRISH

Millatning ruhi sanalmish ona tili va adabiyot ta 'limida nafaqat aqliy idrok, balki ruhiy idrok ham shakllanadi. Demak, tilning mohiyatini anglash uchun aqliy omilning o 'zigma etarli emas, ruhiy sezgilar sиз esa uni tasavvur etish qiyin. SHu sababdan ta 'limda aqliy idrok birlamchi bo 'lsa, tarbiyada ruhiy idrok etakchidir.

Biz yosh avlodga aynan ona tili va adabiyot fanlari asosida milliy tarbiya beramiz. Ona tili va adabiyot fanlari o'quvchida til sevgisi, so 'z sezgisi va ravon nutq malakalarini shakllantiribgina qolmasdan, milliy o 'zlik va ma 'naviy komillikkha eng qulay va samarali usullar yordamida erishiladi. Shu sababdan ona tili va adabiyot fanlarini o 'qitish jarayonida o 'quvchining o'zini o 'zi takomillashtirish, yangi vaziyatda birgalikda ishlash, echimlarini izlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan o 'quv topshiriqlarini tanlash va o 'quv materiallarining o'zaro bog 'liqligi, ilmiy asoslanganligiga e'tiborni qaratish lozim. Biz shu o'rinda quyidagi innovatsion metodlar to 'g'risida to 'xtalib o 'tmoqchimiz:

Ona tili va adabiyot fanlarini o 'qitishda "Topqirlar bellashuvi ", konferensiya, bahs- munozara, sirtqi sayohat metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu noan 'anaviy darslarning har biri o 'ziga xos ko'rinishga ega bo 'lsa-da, ammo ular bir maqsadga, ya 'ni darsda o'quvchilarni ta 'lim jarayonining sub 'ektiga aylantirish, til hodisalarini mustaqil izlanish orqali o 'rganishni ta 'minlash, o 'quvchilar tafakkuri qobiliyatini o 'stirishga qaratilgan. Ona tili va adabiyot fanini o 'qitishda "Topqirlar bellashuvi " metodi o 'yin tarzida o 'tkazilib, unda o'quvchi o'zligini namoyish etish imkoniyatiga ega bo 'ladi. Bellashuv muayyan bo 'lim yoki yirik mavzular o'rganilgandan so 'ng o 'tkaziladi. O'quvchilar birgalashib aylana diametri 30 sm bo 'lgan mix atrofida aylanuvchi fanera tayyorlab, uni 16 ta qismiga ajratadilar va uni 16 ta son bilan raqamlaydilar. Keyin diametri 40 sm bo 'lgan ikkinchi kattaroq aylana tayyorlab, uni birinchi aylananing tashqari qismiga joylashtiradilar. Katta doiraninguqori qismida kichik doira tomon yo 'naltirilgan ikki yo 'nalish chizig 'i, ya

'ni strelka chiziladi. So 'ngra sinfdagi o 'quvchilar 5 nafardan iborat guruhlarga bo 'linadi. Har bir guruh tilning biror bo 'limida o 'tilgan ma 'lumotlar bo 'yicha 16 tadan savol-topshiriq tuzib, 16 ta xatjildga soladi va har bir xatjildni 16 ta son bilan raqamlaydi. Uyin guruhlar orasida o 'tkaziladi. Qur'a tashlanib, guruhlarning tartibi belgilanadi. 1- va 2- navbatni olgan guruh o'yinni boshlaydi. Dastlab 1-navbatni olgan guruh so 'raydi, 2- guruh javob beradi. 2-guruhdan bir kishi kichik doirani aylantiradi. Doira aylanishdan to 'xtagach, 1- guruh yo 'nalish chizig 'i ostidagi raqamga mos kelgan topshiriqni o'qiydi. 2-guruh bir daqiqadan keyin o'qib eshittirilgan savol-topshiriqqa javob beradi. Har bir guruh ikkinchisiga 5 marta savol beradi. Sinalayotgan guruh noto 'g'ri javob bersa, savol bergen guruhning o'zi uni tuzatadi. Agar bir soatda g'olib guruhni aniklash imkoniyati bo 'lmasa, o 'yin davom etgirilishi mumkin. Hakamlar har bir savolni 0-3 ball bilan baholaydilar. Savol-topshiriq noto 'g'ri tuzilgan bo 'lsa, hakamlar bu guruh ballaridan har bir noto 'g'ri savol uchun kelishilgan miqdorda ball kamaytiradilar. Mukofot va jarima ballarining miqdori har bir mashg'ulot uchun alohida kelishiladi. Kelishilgan miqdorda kop ball to 'plagan guruh o 'yinni navbatdagi guruh bilan davom ettiradi. Sirtqi sayohat metodi muayyan bir mavzu yuzasidan bilim, ko 'nikma va malakalar hosil qilingandan keyin o 'tkaziladi. O'quvchilar «Bilimlar mamlakati»ga sayohat qilib, turli holatlarga duch keladilar. Yo 'lda duch kelgan qiyinchiliklarni enggan, ya 'ni o 'quv topshiriqlarini mustaqil bajargan o 'quvchilarga tangalar bilan ballar qo 'yib boriladi. Topshiriqlarni tez va to 'g 'ri bajargan o 'quvchilar sayohatni davom etgiradilar. Topshiriqlar darsliklardan tanlanishi yoki o 'qituvchi tomonidan tuzilgan bo 'lishi lozim. Masalan, sifatlarning ma 'no guruhlari o 'rganilgach, shunday sayohat darsi rejalashtirilishi mumkin. Bu darsda o 'quvchilar quyidagi topshiriqlarni bajaradilar:

topshiriq. Berilgan sifatlarning ma 'nosiga qarab: 1) rang-tus sifatlari; 2) belgi-xususiyat sifatlari; 3) maza-ta'm sifatlari; 4) shakl-hajm sifatlari singari guruhlar tuziladi. Sifat ma 'nolaridan kelib chiqib har bir guruh nomi belgilanadi va bu

ko 'kragi nishonida yozilgan bo 'ladi.

topshiriq. Partadoshingiz bilan yoki guruhlararo sifatlarni o 'z va ko 'chma ma 'noda qo 'llash bo 'yicha bellashing.

topshiriq. «Ot+rang» qolipli beshta qo 'shma sifat hosil qiling.

topshiriq. «Kamalak» mavzusida tasviriy matn yarating.

Konferensiya metodi koproq 7-9-sinflarda o 'tkaziladi. Mazkur metod katta mavzu o 'rganilgandan keyin ma 'lum bir til sathidayoki o 'quv mashg'ulotiningyakunlovchi qismida qo 'llaniladi. SHuningdek, konferensiya metodini bitta sinf doirasida yoki ikkita parallel sinflar bilan birgalikda o 'tkazish mumkin. Bu darsda o 'quvchilarning ona tili va adabiyot fanlaridan tayyorlab kelgan kichik ilmiy ma 'ruzalari tinglanadi, ular birgalikda muhokama qilinadi. Konferensiya darsiga tayyorgarlik kamida bir oy oldin boshlanadi. O 'qituvchi ma 'ruza mavzularini

belgilab, o ‘quvchilarga topshiradi va zarur adabiyotlarni tavsiya qiladi. Vaqtiga qo’shiq bilan ular tayyorgarligini nazorat qilib turadi. O‘qituvchi esa avval adabiyotlar bilanpuxta tanishib chiqib, ma’ruza rejasini belgilaydi. Har bir masala yuzasidan material tayyorlaydi. O ‘quvchilar ilmiy ma ’ruzayozish tartibini bilishlari kerak. Avval tadqiqot mavzusi bilan bog‘liq til hodisasi puxta va asosli o‘rganiladi, o ‘qituvchi bilan material to ‘plash yuzasidan suhbat o‘tkaziladi, tahlil qilinayotgan badiiy asar o ‘qib chiqiladi, misollar alohida- alohida yozib boriladi va nihoyat ular saralanib, matnni yozishga kirishiladi. Konferensiya metodining murakkab jihatlaridan biri o ‘quv jarayonida barcha o ‘quvchilarning faolligini ta ’minlashdir. Ko‘p hollarda ma ’ruzachi faol bo ‘lib, qolgan o ‘quvchilar shunchaki tinglovchiga aylanib qolishi mumkin. SHuning uchun o ‘qituvchi barcha o ‘quvchilarning muzokara iiggirokchisiga aylantirishi, ularning o ‘z fikr-muloxazasi bilan ishtirok etishini ta ’minlashi zarur. Yana shunday metodlardan biri bahs-munozara metodidir. Bu metod ona tili va adabiyot fanlarini o ‘qitishda eng maqbul bo ‘lgan o ‘quvchilar tanqidiy fikrlashini rivojlantiruvchi metod hisoblanadi. Munozara lotincha so ‘zdan olingan bo ‘lib, u o ‘rganish, tahlil qilish, har qanday masalani muhokama qilish degan ma ’nolarni anglatadi. Bahs-munozara metodi ona tili va adabiyot fanlarini o ‘qitish jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Albatta, bu ko‘p jihatdan o ‘quvchilarning mustaqil ijodiy fikrlashi bilan bog‘liqdir. Ijodiy fikrlashga o ‘rgatishda bahs- munozara muhim ahamiyatga ega. Uning o ‘ziga xos xususiyati shundaki, o ‘rganiladigan material o ‘quvchilarga oldindan ma ’lum qilinadi, muhokamaga tashlanayotgan masala xususida har bir o ‘quvchi o ‘zining shaxsiy fikr-mulohazasini bildiradi. Muhokama nutqning eng qiyin turlaridan biri bo ‘lib, uni o ‘zlashtirish uchun o ‘quvchilarga o ‘zfikrularini ifoda etishga yordam beradigan nutq malakalari bilan oldindan tayyorlanish kerak. Ushbu metod, ayniqsa, badiiy asarni muhokama qilish va tahlil qilishda adabiyot darslarida samarali bo ‘ladi. Guruh muhokamasidan qiyinchiliklar bosqichida ham, mulohaza yuritish bosqichida ham foydalanish mumkin. Bundan tashqari, birinchi holda, uning vazifasi: birlamchi ma ’lumot almashish, qarama-qarshiliklarni aniqlash, ikkinchidan, bu olingan ma ’lumotni qayta ko ‘rib chiqish, muammoga o ‘z qarashlarini boshqa qarashlar vapozitsiyalar bilan taqqoslash. Guruh munozarasi shakli dialogik muloqotni rivojlantirish va mustaqil fikrlashni shakllantirishga yordam beradi. Bahs-munozara uchun tanlanadigan savollar o ‘qituvchi tomonidan puxta o ‘ylangan bo ‘lishi lozim. Masalan, «Olinma so ‘zlar» mavzusi yuzasidan bahs-munozaraga quyidagi muammolar o ‘rtaga tashlanishi mumkin: “Boshqa tillardan so ‘z olish zarurmi? Ayrim hollarda rus tili va boshka tillardan kirgan so ‘zlarning o ‘zbekchalishtirish borasida urinishlar mavjud. Sizningcha, hamma so ‘zlarni ham o ‘zbekchalishtirib bo ‘ladimi? Hozirgi ijtimoiy-ikgisodiy sharoitda boshqa tillardan so ‘z olmaslikning iloji bormi?” kabi savollar har bir o ‘quvchining o ‘z nuqtai nazarini bayon qilishini talab etadi. Bahs-munozara o ‘quvchiga erkinlik berishni talab qiladi. Chunki o ‘zfikr-mulohazalarining

haqligini isbotlash ijodiy faoliyat mahsulidir. Yana bir ona tili va adabiyot fanlarini o‘qitishda samarali qo‘llaniladigan metod - amerikalikpedagog olim tomonidan yaratilgan Blum taksonomiyasidir. Taksonomiya - borliqning murakkab tuzilgan sohalarini tasniflash va sistemalashtirish nazariyasi. Blum taksonomiyasi o‘quv chilar tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Blum taksonomiyasi o‘quv maqsadlarining aniqlashtiribgina qo‘ymay, balki ularni tartibga ham soladi. O‘quv maqsadlarini aniq toifalash bilan birga o‘qituvchiga o‘z harakatini bosh maqsadga yo‘naltirish va o‘quv materialini aniq tushuntirishga imkon yaratadi. Blum taksonomiyasi bo‘yicha o‘quv maqsadlarining asosiy toifalari: bilish, tushunish, qo‘llash, analiz (tahlil), sintez va baholash.

Bilish - bu toifa o‘rganilgan materialni muayyan bir omildan boshlab butun bir nazariyagacha esda saqlash va qayta tiklashni anglatadi. Ishlatiladigan termin, muayyan bir omil, uslub, jarayon, asosiy tushuncha, qoida va tamoyillarni biladi.

Tushunish - uning ko‘rsatkichi, materialni bir shakldan boshqa shaklga o‘tkazilishi (ifodaga), materialni interpretatsiyasi (tushuntirish, qisqa bayoni) yoki hodisa va voqealarning kelajagini oqibatlarini (natijalarni) bashorat qilish. Og‘zaki materialni interpretatsiya qiladi, sxema, grafik diagrammalarni interpretatsiya qiladi, og‘zaki materialini materialni matematik ifodaga o‘tkazadi, mavjud materialga asoslanib kelajagini taxminan bashorat qiladi.

Qo‘llash - bu toifa o‘rganilgan materialni muayyan sharoit va yangi vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmalarini. Tushunchalar va tamoyillardan yangi vaziyatda foydalanadi. Qonun va nazariyalarni konkret amaliy vaziyatda ishlatadi, usullar va 17 anglatadi. Bunga qoida, usul, tushuncha, qonun, tamoyil va nazariyalarni to‘g‘ri qo‘llashni namoyish etadi.

Tahlil - bu toifa o‘rganilgan material tarkibini bo‘laklarga bo‘lib, uning tuzilmasini yaqqol ko‘rsatish ko‘nikmalarini anglatadi. Bunga butun qismlarini hisoblash, ular orasidagi bog‘liqlikni aniqlash yaxshilik tamoyillarini anglash kiradi. Yashirin tahminlarni belgilaydi. Mantiqiy xatolar va kamchiliklarni ko‘radi, fakt va natija o‘rtasida farqni aniqlaydi, olingan natijalar ahamiyatini baholaydi.

Sintez - bu toifa element va bo‘laklardan yangilikka ega bo‘lgan yaxlitlikni yaratish ko‘nikmasini anglatadi. Bunday yangi mahsulot: ma‘ruza ish rejasi, umumlashtirilgan majmuasi bo‘lishi mumkin. Tegishli o‘quv natijalari sxema va tizimlarni tuzishga yo‘naltirilgan ijodiy faoliyatni taqozo etadi. Hajmi katta bo‘limgan ijodiy ishlar yozadi. Eksperiment rejasini tuzishni taklif etadi. Bu yoki u muammoni echish rejasini tuzish uchun turli sohalardagi bilimlarini qo‘llaydi.

Baholash - ushbu toifa bu yoki u o‘rganilgan materialni aniq maqsad uchun baholash malakasini anglatadi. Baholash aniq mezonlarga tayanishi lozim. Yozma matn shaklida tuzilgan materialning mantiqiyligini baholaydi, xulosalarning mavjud ma‘lumotlarga mosligini baholaydi, u yoki bu faoliyat natijasining muhimligini

baholaydi. Ona tili va adabiyoti fanlarida tashkil etiladigan o‘quv mashg‘ulotlarining zamonaviy talablaridan biri bu matn bilan ishlashdir. Mana shunday holatlarda dars shakli sifatida tadqiqotdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. "Tadqiqot" darsining asosiy vazifasi - badiiy matnlarni lingvistik tahlil qilishdan iborat. O ‘qituvchi bunday darslarga tayyorgarlik ko‘rishda matn tanlashga alohida e’tibor qaratishi lozim. Shuningdek, matn yuqori darajada badiiy bo‘lishi bilan birga o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va o‘rganilayotgan material hajmi inobatga olinishi zarur. Keyinchalik taqqoslash va qiyosiy tahlil qilish uchun umumiylashtirilgan bir nechta mualliflarning turlicha uslub va nutq turlaridagi matnlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ya’ni, bunday darsda o‘qituvchi zimmasida "lingvistik mikroskop ostida" adabiy matn tilidan bir vaqtning o‘zida bir nechta badiiy asarlarning she’riy jozibasi va yaxlitligini o‘rganish vazifasi turadi. Matn bilan ishslashning asosiy qoidalaridan biri - o‘quvchilar asar haqida umumiylashtirish ega bo‘lishlari uchun adabiyot darslarida oldindan mazkur asar bilan tanishtirilgan bo‘lishlari lozim. O ‘quv mashg‘ulotlari xilma-xilligi va samaradorligini ta’minlashga qaratilgan bu kabi noan ‘anaviy darslardan har doim ham foydalanib bo‘lmaydi. Biroq har qanday o‘qituvchi har bir darsni o‘ziga xos noan ‘anaviy tarzda o‘tkazishni xohlaydi. Shu sababli biz shu o‘rinda nostandard va ijodiy elementlarga murojaat qilgan holda noan ‘anaviy darslarni taklif qilmoqdamiz. Ona tili va adabiyot fanlarida noan ‘anaviy dars shaklida qo‘llash mumkin bo‘lgan yana bitta uslublaridan biri - bu leksik diktant yoki diktantdir. Bunda o‘quvchilar darsda:

y jumboqlarni tuzishni o‘rganish maqsadida krossvord;

y izohlovchi xat yoki ogohlantiruvchi diktantlar;

y ma‘lumotlarni anglash va umumlashtirish ko‘nikmasini shakllantiruvchi “ortiqchasini toping”;

y topqirlik va faollikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi, o‘quv-izlanish ta’lim metodi;

y tafakkurni rivojlantiradi optimallashgan (ko‘p variantlardan eng ma‘qulini, mosini, muvofiqini tanlash);

y maqsadga yo‘naltirilgan ijodiy tafakkurni jadal rivojlantiruvchi kreativ (ijodiy) tadqiqot xarakteriga ega bo‘lgan topshiriqlarni bajarishlari mumkin. Ko‘rinib turibdiki, bugungi kunda ona tili va adabiyot fanlarini o‘qitishda qo‘llaniladigan innovatsion metodlar judayam ko‘p. O ‘qituvchi o‘quv materiallarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ushbu metodlarni puxta bilishi, har bir o‘quv mashg‘uloti uchun eng qulay va maqbollarini tanlay olishi lozim. Agar o‘quv jarayonida qanchalik mazmunga mos turli xil metodlardan foydalanssa, o‘quvchilarning shu fanni o‘zlashtirish darajasi shuncha yuqori .. bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, nostandard o‘quv elementlari yordamida tashkil etilgan noan ‘anaviy mashg‘ulotlar odatda, muvaffaqiyatli vaziyatlarni keltirib

chiqaradi va o ‘quvchilarning darsda zerikishlariga umuman vaqtłari bo ‘lmaydi. Shuningdek, ularda o ‘qish va ishlashga bo ‘lgan ishtiyoqlar uyg‘onib, mustaqil faoliyat yuritishga odatlanib borishadi. Faqat mana shunday ijodiy topshiriqlar o ‘quvchilarda ona tili va adabiyot fanlari o ‘qitish jarayonida kreativ qobiliyatlarni shakllantiruvchi ijobiy munosabat tarbiyalanadi.

ADABIYOTLAR:

- 1.G‘ulomova M.X., Sobirova N.K. Yangi innovatsion texnologiya yordamida ta’lim samaradorligini oshirish usullari. - T.: 2009.
- 2.Innovatsion ta ’lim texnologiyalari /Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To ‘raev A.B. - Toshkent: 2015. - 208 bet.
- 3.Ro ‘zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo ‘llanilishi /Met.qo ‘ll. - T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013. - 115 b.